

# ONOMASTIKANI O'QITISH UCHUN LINGVISTIK MASHQLAR YARATISH

**f.f.f.d. (PhD) D.A.Abduvaliyeva**  
**JDPI magistranti N.I.Matyakubova**

**Onomastika** (yun. onomastike — nomlash, nom qo'yish san'ati) — tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig'indisi. Ayrim tadqiqotlarda "Onomastika" termini antroponimika ma'nosida ham qo'llangan. Onomastika mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

Mazkur maqolada ona tili darslarida onomastik birliklarni Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni"<sup>1</sup> asari matni asosida o'qitish xususida fikr yuritamiz. Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" asarining birinchi bobi "Agra. Hamidabonu arosatda" deya nomlangan bo'lib, mazkur bobda qo'llanilgan onomastik birliklarni ko'rib chiqamiz.

**Antroponimlar** – Xonzoda begim(3-b.), Bobur(4-b.), Humoyun(4-b.), Hindol mirzo(4-b.), Sultonim begim(4-b.), Gulbadan begim(5-b.), Hamida(6-b.), Xurramshoh(7-b.), Fazliddin(7-b.), Mirbobo Do'st(9-b.), Shayboniyxon(9-b.), Mohim begim(12-b.), Yodgorbek(11-b.), Beka begim(11-b.), Navoiy(12-b.), Hofiz(12-b.), Dehlaviy(12-b.), Junayd Barlos(12-b.), Ismoil(12-b.), Aqiqa(15-b.), Nizom(15-b.), Aminat(17-b.), Kabir(20-b.)

**Toponimlar** – Agra(3-b.), Hindiston(3-b.), Farg'ona(3-b.), Samarqand(3-b.), Toshkent(3-b.), Zarafshon(3-b.), Xuroson(5-b.), Kobul(5-b.), Tillakori tolor(6-b.), Andijon(8-b.), Jom(9-b.), Badaxshon(10-b.), Iroq(14-b.), Mevat(17-b.), Eron(17-b.), Makka-yu Madina(19-b.)

---

<sup>1</sup> Qodirov P. Avlodlar dovoni. T.:G'aur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi. 2018. – 3-62 b. (Keyingi foydalanilgan o'rinlar sahifasi qavs ichida ko'rsatilgan)

**Zoononimlar** – bulbul(4-b.), qoplon(6-b.), sher(8-b.), baliq(16-b.), bo'taloq(17-b.), qush(18-b.), fil(20-b.), cho'chqa(21-b.), sigir(21-b.), ilon(38-b.), ot(4-b.), qarchig'ay(51-b.), ohu(59-b.).

**Gidronimlar** – Jamna daryosi(3-b.), Qoradaryo(8-b.), Gang daryosi(20-b.), Izdihom daryosi(25-b.), Brahmaputra(32-b.), Murg'ob daryosi(48-b.), Hazar dengiz(49-b.), Sarasvati daryosi(58-b.).

**Fitonimlar** – xurmo(3-b.), tok(3-b.), uzum(3-b.), qovun(3-b.), arpa(3-b.), gulmuhor daraxti(3-b.), qizil gul(3-b.), ipak(9-b.), ashoka daraxti(58-b.), ban'yan daraxti(58-b.), afyun(59-b.).

**Astroponimlar** – quyosh(36-b.), Zuhra yulduzi(37-b.), Mirrix yulduzi(37-b.).

**Kosmonimlar** – Hamal(36-b.), Javzo(36-b.), Asad(36-b.).

**Etnonimlar** – ma'jusiylar(34-b.).

Mashq eng qadimiy o'qish usul. U inson faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladi. Y.A. Kamenskiy "Pansofiya maktabi" nomli asarida mashqning ahamiyatini uqtirib, shunday yozgan edi: "Mashq insonni mohir, epchil, barcha narsadan xabardor, hamma sohagaqiziquvchan, har qanday ishga yaroqli kishi qilib yetishtiradi. O'quvchilarning barcha sinflarda o'qish va yozish, takrorlash va fikrlashuv, to'g'ri (ona tilidan chet tiliga) va teskari (chet tilidan ona tiliga) tarjima, deklamatsiya (badiiy asarni ta'sirchan o'qish) va disput (ilmiy muhobasa, o'z qarashlarini himoya qilish) amaliyotida mashq qilishni talab qilamiz". Lingvistik mashq yoshlarni hayotga tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi, til ta'limini amalga oshirishning yetakchi yo'li hisoblanadi. Mashq ma'lum makonda (sinfda o'qituvchi rahbarligida) va zamonda (darsda) o'tkaziladi. U ongli hayotning alohida soniyalari, hayotning o'zi demakdir.<sup>2</sup>

An'anaviy ona tili ta'limi tizimida lingvistik mashqlarning, asosan bir vazifasiga – bilimlarni malakaga aylantirish ishiga ko'proq e'tibor beriladi. Lingvistik mashqlarning o'quvchilar faoliyatida bajaradigan barcha vazifalaridan unumli foydalanish bilim, malakalarning yanada takomillashuviga asos bo'ladi. lingvistik

---

<sup>2</sup> Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. T.:Yangi asr avlodi. 2005. – 128 b.

mashqlarni faoliyatda bajaradigan ishi jihatidan o'rganish funksional tahlil sanaladi va ular quyidagilardan iborat:

**Lingvistik mashq qilish usuli.** Qiyinligi mashq qilishning subyektiv tomoni bo'lib, o'quvchi berilgan so'zlarni guruhlariga ajratish yo'lini bilmasa, mashq qilishda qiynaladi. Masalan, berilgan so'zlarni ma'nolari yoki tuzulishi jihatidan guruhlariga ajratish jarayonini tahlil etaylik. Bu usulni qo'llash paytida, guruhlariga ajratish jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash va konkretlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari ham ishtirok etadi. Binobarin, lingvistik mashq qilish usullari nutq madaniyatini o'rganish yo'llari va aqliy faoliyat ko'rsatish amallari hosilasi sifatida shaklangan.


Onomastik birliklar mavzusini o'quvchiga batafsil va qiziqarli holda yetkazib berishda "Avlodlar dovoni" asarining mazkur bobidan foydalanish soha vakilidan chuqur izlanish va mahoratni talab etadi. Bu jarayon esa, albatta, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkillashtirish hamda mavzuga doir ma'lumotlar izchilligi va ketma-ketligiga alohida e'tibor qaratish orqali amalga oshiriladi. Xususan, onomastik birliklarga doir ma'lumotlarni dars jarayonining yangi mavzuni mustahkamlash bosqichida o'quvchilarga bir qancha topshiriqlar bergan holda bilimlarni yanada chuqurroq egallashlariga zamin yaratish mumkin. Bunda birinchi topshiriq qilib berilgan badiiy matndagi onomastik biriklarni guruhlariga ajratib chiqish topshirig'i beriladi.

<b>Onomastik birliklar</b>								
<b>Antropo nimlar</b>	<b>toponi mlar</b>	<b>Gidron imlar</b>	<b>Fitoni mlar</b>	<b>teoni mlar</b>	<b>Zooni mlar</b>	<b>kosmon imlar</b>	<b>etnoni mlar</b>	<b>astroni mlar</b>
Bobur	Agra	Jamna daryosi	Ashoka daraxti	–	Bulbul	Hamal	Ma'jus iylar	Mirrix

**Guruhlarga ajratish usuli.** Lingvistik mashq qilishning bu usulidan boshlang'ich sinflardan tortib, yuqori sinflargacha amal qilinadi. Ona tili ta'limining ilk qadamlaridanoq guruhlarga ajratish yo'li bilan mashq o'tkaziladi. Masalan, bunda quyidagi strategiyadan foydalanishimiz mumkin: **“Ajurli arra”** (frantsuzcha “ajour” – bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq) strategiyasi o'quvchi (talaba)larga yaxlit muayyan mavzuni bir nechta qismlarga ajratish orqali mohiyatini yoritish imkoniyatini yaratadi. Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchi (talaba)lar tayyor matnlar bilan ishlaydi.<sup>3</sup>

Mazkur metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar guruhlarga ajatiladi. Tahli etilayotgan material matni bir nechta qismlarga ajratilgan holda alohida qog'ozlarda qayd qilinadi va muayyan topshiriq beriladi. Guruhlar matnli materiallardan foydalanib, topshiriqni bajaradi.

Bunda, “Avlodlar dovoni” asarining “Agra. Hamidabonu arosatda” bobi qismlarga ajratilgan holda guruhlarga tarqatiladi. Topshiriq sifatida leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra asarda qo'llangan antroponimlarni quyidagi guruhlarga ajratib chiqish<sup>4</sup> beriladi:



**Alternativ mashq qilish usuli.** Mashq qilish jarayonida alternativ usuldan foydalanilganda, tafakkurning tanlay olish xususiyati amal qiladi, berilgan ikki

<sup>3</sup> Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.

<sup>4</sup> Abduvaliyeva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. –T:Fan, 2016. – 108 bet.

imkoniyatdan to'g'risi tanlanib topshiriq bajariladi. Alternativ mashq qilish usulidan maktablarda ona tilini o'zlashtirishning barcha nuqtayi nazarlariga bog'langan holda foydalaniladi. Xususan, joy nomlari imlosiga doir ma'lumotlarni sinfni ikki guruhga bo'lib, **“Kim chaqqon va savodxon?”** o'yinini tashkil etgan holda bayon etish mumkin. Bunga ko'ra har ikkala guruh o'quvchilari sinf doskasiga navbat bilan bittadan sodda va qo'shma tarkibli joy nomlariga misollar yozadilar. Musobaqa yakunlangach, o'qituvchi doskadagi har bir joy nomi imlosiga, xususan, qo'shma tarkibli nomlarning qo'shib hamda ajratib yozilishiga alohida ahamiyat qaratadi. Qo'shma tarkibli joy nomlari imlosini tahlil qilish barobarida ularning qo'shib hamda ajratib yozilishi bo'yicha asosiy qoidalarni tushuntirib o'tadi.

Mazkur texnologiyaning afzalligi shundaki, birinchidan, ta'lim oluvchi darslikka qo'shimcha ravishda nomlar tuzilishiga ko'ra sodda (*Agra, Xuroson, Kobul, Chunor, Toshkent, Hindiston,* ) va qo'shma tarkibli (*Dashti qipchoq, Tillakori tolor, Qora shirin*) bo'lishi haqidagi ma'lumot bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ikkinchidan, topshiriqni bajarish jarayonida qo'shma so'z shaklidagi birliklarning qo'shib yoki ajratib yozilishiga doir bilimlarga ehtiyoj sezib, joy nomlari imlosida mazkur hodisa muhimligini o'z tajribasida sinab ko'radi. Buning natijasida esa o'quvchi tomonidan imlo bo'yicha aytilgan barcha ma'lumotlarni diqqat bilan tinglash va uni amalda to'g'ri qo'llashga harakat qiladi.<sup>5</sup>

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari.-T: Fan, 1984.
2. Abduvaliyeva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. –T:Fan, 2016. – 108 bet.
3. Doniyorov X. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili. –T., 1972., Bafoev B. Navoiy asarlari leksikasi. –T: Fan, 1983.
4. Doniyorov X., Mirzaev S. So'z san'ati.-T:O'zbekiston, 1962.
5. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.

---

<sup>5</sup> Shukurov R., Jo'raboyeva G. Ona tili darslarida joy nomlarini o'rganish, yoxud mazkur mavzuni yoritish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2018-yil. 11-son. – 17 bet.

6. Qodirov P. Avlodlar dovoni. T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi. 2018. – 3-62 bet.

7. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi.- T.:Yangi asr avlodi. 2005. – 128 bet.